



TA’MINOT ZANJIRI BO‘YICHA DUE DILIGENCE BOSHQARUV TIZIMI

Kirish

Mazkur tartib Tungsten xom ashyosini xarid qilish, shuningdek, Kombinat tomonidan amalga oshiriladigan qayta ishlash yoki “tolling” operatsiyalariga nisbatan qo‘llanilishi lozim.

Ushbu tartibda belgilangan talablar “O‘zTMK” AJ ta’minot zanjirida xavf aniqlangan zahoti kuchga kiradi. Mazkur “xavf” OECD Yo‘riqnomasi yoki unga mos keluvchi Yevropa Ittifoqining 2017/821-sonli Reglamenti hamda milliy qonunchilik hujjatlarida belgilangan mezonlar asosida aniqlanadi.

Mazkur tartibning maqsadi xavf bilan bog‘liq salbiy ta’sirlarni aniqlash va quyidagi tuzatish choralari belgilashdan iborat:

- i) amaldagi biznes munosabatlari davom ettirilgan taqdirda xavflarni kamaytirish bo‘yicha choralarni amalga oshirish;
- ii) biznes munosabatlari qisqa muddatga to‘xtatilgan holatda xavflarni kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni davom ettirish;
- iii) xavflarni kamaytirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar samara bermagan taqdirda tegishli yetkazib beruvchi bilan biznes munosabatlarini tugatish;
- iv) xavflar xavfni kamaytirish choralari orqali bartaraf etilishi mumkin bo‘lmagan holatlarda biznes munosabatlarini darhol tugatish.

2. Monitoring va javobgarlik

UZTMK Ta’minot zanjirida tegishli tekshiruv (Due Diligence) boshqaruv tizimini yuritish uchun mas’ul etib tayinlangan shaxs:

Abdurauf Abdukarimovich Turdibayev – Boshqaruv raisining tijorat va marketing masalalari bo‘yicha o‘rinbosari

Elektron pochta: a.turdibaev@uztmk.uz

Siyosat talablarini amalga oshirishni ta’minlash uchun tayinlangan mutaxassislar:

- **U. Salohutdinov** – Tijorat departamenti boshlig‘i, xom ashyo, tovarlar va xizmatlarni xarid qilish jarayonlari uchun mas’ul;

- **Tasdiqlangan Xarid komissiyasi** – xom ashyo, materiallar, tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilarini (pudratchilarini) baholash va tanlash uchun mas’ul;
- **U. Shaxizirova** – Komplayens xizmati, yetkazib beruvchilarning muvofiqligini tekshirish va ta’minot zanjiridagi xavflarni (CAHRA) baholash uchun mas’ul.

Due Diligence tartib-taomillarini bevosita amalga oshirish uchun mas’ul xodimlar:

- **U. Salohutdinov** – Tijorat departamenti boshlig’i;
- **G. Aliyev** – Yuridik departamenti boshlig’i;
- **M. Yunusov** – Moliya departamenti boshlig’i;
- **J. Ikramov** – Xavfsizlik departamenti boshlig’i;
- **D. Xolmuradov** – Ombor xo’jaligi departamenti boshlig’i.

Due Diligence tartib-taomillarini amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi xodimlar uchun tegishli o’quvlarni tashkil etish uchun mas’ul shaxs:

- **S. Eshnazarov** – HR departamenti direktori v.v.b.

3. Due Diligence va audit tartib-taomili

- Yangi yetkazib beruvchilar uchun KYC jarayoni amalga oshiriladi va materiallarning tasnifidan qat’i nazar, dastlabki CAHRA tekshiruvi yakunlari asosida Due Diligence baholashi o’tkaziladi.
- Ikkilamchi xom ashyolar uchun KYC jarayoni amalga oshiriladi hamda har bir operatsiya bo’yicha o’zini-o’zi deklaratsiya qilish shakli (self-declaration form) talab etiladi. “O’zTMK” AJ ikkilamchi materiallar yetkazib beruvchilarining barchasini doimiy monitoring qiladi va xavf aniqlangan taqdirda qayta ishlash obyektida joyiga chiqib tekshiruv o’tkazishni maqsad qiladi.
- Ta’minot zanjirida xavflar yuzaga kelishi mumkinligiga shubha mavjud bo’lgan taqdirda, Due Diligence tekshiruvi zudlik bilan o’tkazilishi lozim.

4. Xavflar va ularga javob choralari

Manba	Xavf	Xavfga javob chorasi
IHT	Minerallarni qazib olish, tashish yoki savdosi bilan bog’liq jiddiy huquqbuzarliklar: a) Qiynoqqa solish, shafqatsiz, g’ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolar.	“O’zTMK” AJ aniqlangan xavfni OECD Yo’riqnomasiga muvofiq ravishda yetarli darajada kamaytirish imkoniyati mavjud bo’lmagan taqdirda, hamkorlik munosabatlarini vaqtincha

	b) Majburiy yoki zo'rlab ishlatish mehnati, ya'ni jazo qo'llash tahdidi ostida har qanday shaxsdan talab qilinadigan va ushbu shaxs tomonidan ixtiyoriy ravishda taklif etilmagan ish yoki xizmat. c) Bolalar mehnatining eng yomon shakllari. d) Boshqa og'ir inson huquqlari buzilishlari va suiiste'mollari, shu jumladan keng ko'lamli jinsiy zo'ravonlik holatlari. e) Harbiy jinoyatlar yoki xalqaro gumanitar huquqning boshqa jiddiy buzilishlari, insoniyatga qarshi jinoyatlar yoki genotsid.	to'xtatishi yoki butunlay bekor qilishi mumkin.
IHTT	Noqonuniy qurolli nodavlat guruhlariga bevosita yoki bilvosita ko'mak ko'rsatish: a) Kon maydonlarini noqonuniy nazorat qiluvchi yoki boshqa tarzda transport yo'nalishlari, minerallar savdosi amalga oshiriladigan nuqtalar hamda ta'minot zanjirining yuqori bo'g'inidagi ishtirokchilarni nazorat qiluvchi; va/yoki b) Kon maydonlariga kirish nuqtalarida, transport yo'nalishlari bo'ylab yoki minerallar savdosi amalga oshiriladigan joylarda noqonuniy ravishda soliqlar yoki undirmalar (pul mablag'lari yoki minerallar shaklida) talab qiluvchi; va/yoki c) Vositachilar, eksport qiluvchi kompaniyalar yoki xalqaro savdogarlardan noqonuniy ravishda soliqlar yoki undirmalar talab qiluvchi.	"O'zTMK" AJ aniqlangan xavfni OECD Yo'riqnomasiga muvofiq ravishda yetarli darajada kamaytirish imkonini bo'lmagan taqdirda, tegishli hamkorlik munosabatlarini vaqtincha to'xtatishi yoki bekor qilishi mumkin.
IHTT	Davlat yoki xususiy xavfsizlik kuchlariga nisbatan – quyidagi faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslarga bevosita yoki bilvosita ko'mak ko'rsatilmaligi lozim: a) Kon maydonlarini, transport yo'nalishlarini va ta'minot zanjirining yuqori bo'g'inidagi ishtirokchilarni noqonuniy ravishda nazorat qiluvchi; kon maydonlariga kirish nuqtalarida, transport yo'nalishlari bo'ylab yoki minerallar savdosi amalga oshiriladigan joylarda pul mablag'lari yoki minerallar shaklida noqonuniy soliqlar yoki undirmalar talab qiluvchi; shuningdek, vositachilar, eksport kompaniyalari yoki xalqaro savdogarlardan noqonuniy ravishda soliqlar yoki undirmalar undiruvchi. b) Qonun ustuvorligini ta'minlash tamoyillariga zid ravishda faoliyat yurituvchi, shu jumladan inson huquqlarini himoya qilish, kon ishchilari, uskunalar va obyektlar xavfsizligini ta'minlash hamda kon maydonlari yoki transport yo'nalishlarini qonuniy qazib olish va savdo jarayonlariga noqonuniy aralashuvlardan himoya qilish talablariga rioya qilmaydigan. c) Xavfsizlik va inson huquqlari bo'yicha ixtiyoriy tamoyillar (Voluntary Principles on Security and Human Rights) talablarini buzuvchi.	Ta'minot zanjiridagi kompaniyaning o'ziga xos mavqeidan kelib chiqib, "O'zTMK" AJ aniqlangan xavfni OECD Yo'riqnomasiga muvofiq ravishda yetarli darajada kamaytirish imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirda, tegishli hamkorlik munosabatlarini vaqtincha to'xtatishi yoki bekor qilishi mumkin. Agar davlat yoki xususiy xavfsizlik kuchlariga bevosita yoki bilvosita ko'mak ko'rsatish bilan bog'liq asosli xavf mavjudligi aniqlansa, "O'zTMK" AJ bunday xavflarning oldini olish yoki ularni kamaytirish maqsadida yuqori bo'g'indagi yetkazib beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan birgalikda xavflarni boshqarish rejasini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi. Bunday holatlarda, xavflarni kamaytirish bo'yicha ko'rilgan choralar samara bermagan taqdirda, xavflarni boshqarish

		rejasi qabul qilingan kundan boshlab olti oy ichida yuqori bo'g'indagi yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik munosabatlari vaqtincha to'xtatiladi yoki bekor qilinadi.
IHTT	Minerallarning kelib chiqishini yashirish bilan bog'liq poraxo'rlik va firibgarlik yo'li bilan noto'g'ri ma'lumot taqdim etishga nisbatan: Minerallarni qazib olish, savdosi, qayta ishlanishi, tashilishi va eksporti jarayonida minerallarning kelib chiqishini yashirish yoki soxtalashtirish maqsadida har qanday porani taklif qilish, va'da berish, berish, talab qilish yoki qabul qilish, shuningdek, hukumatlarga to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va royalti to'lovlarini noto'g'ri ko'rsatish yoki yashirishga yo'l qo'yilmaydi. Pul mablag'larini legallashtirishga (pul yuvishga) nisbatan: Yuqori bo'g'indagi yetkazib beruvchilar tomonidan kon maydonlariga kirish nuqtalarida, transport yo'nalishlari bo'ylab yoki minerallar savdosi amalga oshiriladigan joylarda minerallarga nisbatan noqonuniy soliqlar solish yoki undirish natijasida olingan, shuningdek, noqonuniy qazib olish, savdo qilish, qayta ishlash, tashish yoki eksport qilish bilan bog'liq bo'lgan pul mablag'larini legallashtirish holatlariga yo'l qo'yilmaydi. Hukumatlarga to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va royalti to'lovlariga nisbatan: Minerallarni qazib olish, savdosi va eksporti bilan bog'liq bo'lgan soliqlar, yig'imlar va royalti to'lovlarini to'lamaslikka yo'l qo'yilmaydi. CAHRA hududlarida amalga oshiriladigan tegishli to'lovlar hukumatlarga to'lanishi hamda Qazib oluvchi sanoat tarmoqlarida shaffoflik tashabbusi (Extractive Industry Transparency Initiative) tamoyillarida belgilangan prinsiplarga muvofiq ravishda oshkor etilishi lozim.	Ta'minot zanjiridagi kompaniyaning o'ziga xos mavqeidan kelib chiqib, biz tegishli hollarda yetkazib beruvchilar, markaziy yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati vakillari hamda manfaatlariga ta'sir ko'rsatilayotgan uchinchi tomonlar bilan hamkorlik qilish majburiyatini olamiz. Mazkur hamkorlikning maqsadi – salbiy ta'sirlar bilan bog'liq xavflarning oldini olish yoki ularni kamaytirish, shuningdek, oqilona muddatlarda amalga oshiriladigan o'lchab bo'ladigan chora-tadbirlar orqali faoliyat samaradorligini yaxshilash va monitoring qilishdan iborat. Xavflarni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan choralar kutilgan natijani bermagan taqdirda, biz yuqori bo'g'indagi yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik munosabatlarini vaqtincha to'xtatamiz yoki bekor qilamiz.

5. Kuzatuvchanlik (traceability) yoki saqlash zanjiri (chain of custody) yetarli bo'lmagan yoki mavjud bo'lmagan holatlar bo'yicha tartib

i) Past xavf (Low Risk)

Kelib chiqish manbai hamda saqlash zanjiri yoki kuzatuvchanlikni asosli ravishda aniqlash imkonini beruvchi rasmiy hujjatlar va joylardagi ma'lumotlar asosida yetarli dalillar mavjud.

Due Diligence jarayoni OECD Yo'riqnomasiga zid bo'lgan hech qanday holatlarni aniqlamadi.

ii) Aniqlab bo'lmaydigan holat (Indeterminable)

Kelib chiqish manbai hamda saqlash zanjirini asosli ravishda aniqlash imkoni mavjud emas.

Due Diligence jarayoni kelib chiqish manbai va saqlash zanjiri bo'yicha asosli xulosa chiqarish uchun yetarli ma'lumotlarni taqdim etmadi, biroq yetkazib beruvchilarning OECD Yo'riqnomasi II-ilovasiga muvofiq kelmasligi bilan bog'liq xavf mavjudligini ko'rsatuvchi dalillar aniqlanmadi.

iii) Xavflarni kamaytirish talab etiladigan xavflar (Mitigation Risks)

Due Diligence jarayonida olingan dalillar to'g'ridan-to'g'ri yetkazib beruvchi OECD Yo'riqnomasining II-ilovasiga muvofiq kelmaydigan har qanday tomonlardan mahsulot olayotgani yoki ular bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi xavfni aniqlamadi.

Biroq, mavjud dalillar yetkazib beruvchining minerallarning kelib chiqishi va saqlash zanjiri to'g'risida firibgarlik asosida noto'g'ri ma'lumot taqdim etgan tomonlardan mahsulot olayotgani yoki ular bilan bog'liqligi yuzasidan asosli xavf mavjudligini ko'rsatadi.

Mazkur toifa, shuningdek, xavf minerallar noto'g'ri ma'lumot yoki soxta asoslar bilan savdoga chiqarilgandan keyin, ya'ni retrospektiv tarzda aniqlangan holatlarni ham qamrab oladi.

iv) Mojarolarga hissa qo'shish xavfi (Risk of Contributing to Conflict)

Due Diligence jarayonida olingan dalillar to'g'ridan-to'g'ri yetkazib beruvchilarning OECD Yo'riqnomasining II-ilovasiga muvofiq kelmaydigan tomonlardan mahsulot olayotgani yoki ular bilan bog'liqligi yuzasidan asosli xavf mavjudligini aniqlaydi.

Mazkur toifa, shuningdek, xavf minerallar noto'g'ri ma'lumot yoki soxta asoslar bilan savdoga chiqarilgandan keyin, ya'ni retrospektiv tarzda aniqlangan holatlarni ham o'z ichiga oladi.

6. Kuzatuvchanlik (traceability) yoki saqlash zanjiri (chain of custody) yetarli bo'lmagan yoki mavjud bo'lmagan minerallar bo'yicha xavflarga javob berish strategiyalari

Xavf	Xavflarga javob choralari
1-tur (past xavf)	Ajratilgan (segregatsiya qilingan) minerallarni qabul qilish yoki jo'natishni amalga oshirish. • Ta'minot zanjirini doimiy ravishda monitoring qilishni davom ettirish. • Tegishli tekshiruv (Due Diligence) jarayonlarini kuchaytirish maqsadida yuqori bo'g'indagi ishtirokchilar bilan hamkorlik qilish.
2-tur (aniqlab bo'lmaydigan)	• Milliy davlat organlari, yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, mintaqaviy yoki tarmoq miqyosidagi Due Diligence dasturlari hamda boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilib, saqlash zanjiri (chain of custody) yoki kuzatuvchanlik (traceability) tizimlarini takomillashtirish va kuchaytirish. • Tegishli holatlarda ajratilgan (segregatsiya qilingan) minerallarni qabul qilish yoki jo'natishni amalga oshirish. • Ichki Due Diligence tizimini takomillashtirish, jumladan, ichki ma'lumotlarni boshqarish tizimlarini, saqlash zanjiri yoki kuzatuvchanlik tizimlarini rivojlantirish hamda vaqt o'tishi bilan OECD Yo'riqnomasining II-ilovasida belgilangan xavflarni aniqlash va boshqarish.

	• Mineral resurslari sohasini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha milliy davlat organlarining sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, ta'minot maqsadlarida kon maydonlarini tekshirish va tasniflash (masalan, yashil, sariq yoki qizil xavf belgilariga ajratish); saqlash zanjiri yoki kuzatuvchanlik va Due Diligence tizimlarini yaratish hamda joriy etish; minerallar eksportini sertifikatlash; ma'lumotlarni boshqarish va almashish jarayonlarini rivojlantirish. • Manfaaddor tomonlar bilan kelishilgan holda, Due Diligence jarayonlarini moliyalashtirishga ko'maklashish maqsadida mineral mahsulotlarini sotishdan tushadigan mablag'larning ma'lum qismini milliy, ko'p tomonlama manfaaddor ishtirokchilar yoki tarmoq dasturlari orqali yo'naltirish imkoniyatini ko'rib chiqish. • OECD Yo'riqnomasining 5-bosqichiga muvofiq ravishda Due Diligence jarayonlari to'g'risida ochiq hisobot berish.
3-tur (riskni yumshatish / kamaytirish xavfi)	Yuqoridagi 2-tur (Type 2) uchun belgilangan xavfga javob choralarini qo'llash; shuningdek, • Xavf to'g'risida vakolatli davlat organlarini, milliy, ko'p tomonlama manfaaddor tomonlar yoki tarmoq miqyosidagi Due Diligence dasturlarini xabardor qilish.
4-tur (mojarolarga hissa qo'shish xavfi)	Kelishilgan xavflarni kamaytirish choralarining amalga oshirilishini baholash uchun oqilona zarur bo'lgan muddat davomida yetkazib beruvchi bilan hamkorlik munosabatlarini vaqtincha to'xtatish. Bunday to'xtatib turish muddati, odatda, olti (6) oydan oshmasligi lozim, bundan uzoqroq muddatni asoslovchi hujjatlashtirilgan holatlar bundan mustasno. Hamkorlikni vaqtincha to'xtatish qayta ko'rib chiqilgan xavflarni boshqarish rejasi bilan birga amalga oshirilishi mumkin. Mazkur rejada savdo munosabatlarini qayta tiklashdan oldin bajarilishi lozim bo'lgan bosqichma-bosqich takomillashtirish bo'yicha samaradorlik maqsadlari belgilanishi kerak. • Xavf to'g'risida vakolatli davlat organlarini, milliy, ko'p tomonlama manfaaddor tomonlar yoki tarmoq miqyosidagi Due Diligence dasturlarini xabardor qilish hamda ularni va boshqa manfaaddor tomonlarni xavflarni boshqarish jarayoniga jalb etish. • Kuchaytirilgan saqlash zanjiri (chain of custody) yoki kuzatuvchanlik (traceability) tizimlarini, xavflarni boshqarish va doimiy monitoring jarayonlarini joriy etish maqsadida milliy davlat organlari, yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, mintaqaviy yoki tarmoq miqyosidagi Due Diligence dasturlari hamda boshqa manfaaddor tomonlar bilan hamkorlik qilish. • Ichki Due Diligence bo'yicha xabardorlik darajasi va xodimlarning malakasini oshirish. • Mineral resurslari sohasini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha milliy davlat organlarining sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, ta'minot maqsadlarida kon maydonlarini tekshirish va tasniflash (masalan, yashil, sariq yoki qizil xavf belgilariga ajratish); saqlash zanjiri yoki kuzatuvchanlik va Due Diligence tizimlarini yaratish hamda joriy etish; minerallar eksportini sertifikatlash; ma'lumotlarni boshqarish va almashish jarayonlarini rivojlantirish. • OECD Yo'riqnomasining 5-bosqichiga muvofiq ravishda Due Diligence jarayonlari to'g'risida ochiq hisobot berish.

7. Takomillashtirishni o'lchash

Agar mazkur tartib biznes munosabatlarini xavflarni qat'iy kamaytirish choralarini amalga oshirgan holda davom ettirishni nazarda tutsa, unda xavflarga javob choralarida

takomillashtirish darajasini o'lchash va faoliyat samaradorligini kuzatib borish uchun sifat va/yoki miqdoriy usullar belgilanishi lozim.

Agar aniqlangan xavflarni kamaytirish bo'yicha olti (6) oy davomida hech qanday choralar ko'rilmasa, aniqlangan xavflarning qayta yuzaga kelishining oldini olish uchun zarur bo'lgan harakatlarni belgilash maqsadida yangi xavflarni boshqarish rejasi ishlab chiqiladi. Katta komplayens menejeri xavflarni kamaytirish rejasining amalga oshirilish jarayoni va natijalarini har chorakda baholaydi hamda ko'rib chiqadi.

Xavflarni minimallashtirish bo'yicha mumkin bo'lgan choralar yoki qo'shimcha qadamlar uchun OECD Due Diligence Yo'riqnomasining III-ilovasiga aniq havola beriladi va ular har qanday Xavflarni boshqarish rejasida rasmiy ravishda qayd etilishi lozim.

8. Xulosa

Agar Due Diligence tekshiruvi yuqorida ko'rsatilgan xavflardan biri yoki bir nechta mavjudligini aniqlasa, Ijroiya rahbariyati tavsiya etilgan xavflarga javob choralariga asoslanadi hamda Komplayens xodimi bilan birgalikda 2-bandda nazarda tutilgan tuzatish choralari doirasida o'zaro kelishilgan qaror qabul qiladi.